



XALQ DEPUTATLARI DANG'ARA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 21-iyul

VII-11-69-11-155-K/25

Dang‘ara tumani

Tuman Prokuraturasi tomonidan 2025-yilning 6 oyi davomida jinoyatchilikka va korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida

Tumanda qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish hamda jinoyatchilikka qarshi kurash borasida joriy yilning 6 oyi davomida asosiy e’tibor O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, Hukumat qarorlari, bosh prokuorning buyruq va ko‘rsatmalari hamda hay’at qarorlarida belgilab berilgan vazifalar ijrosiga qaratildi.

Qonun ustuvorligini ta’minalash va qonuniylikni mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni samaradorligini oshirish, aniqlangan qonunbuzilishi holatlariga prokuror nazorati hujjatlarini qo’llash bilan cheklanib qolmasdan, ularni yuzaga kelish sabablari o‘rganilib, ularni bartaraf etish choralari ko‘rib borilmoqda.

Xususan, joriy yilning 6 oyida 190 ta jinoyatlar qayd etilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 27 taga, 16,6 foizga oshgan. Shuningdek, oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyatlar 86 ta 12 taga, 12,2 foizga kamaygan bo‘lib umumiyligi jinoyatchilikning 45,2 foizini tashkil etgan. Aniqlanadigan jinoyatlar esa 64 tani tashkil etib o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1 taga kamaygan, bu esa umumiyligi jinoyatchilikning 33,6 foizni tashkil etgan.

Tumanda 181 ming nafar aholi istiqomat qilib, joriy yilning 6 oyida sodir etilgan 190 ta jinoyatlar har 100 ming aholiga nisbatan 105 tadan to‘g‘ri kelgan. Mahalla hududida sodir etilgan jinoyatlar joriy yilning 6 oyida 5 taga kamayib, 100 ming aholiga salmog‘i 24,86 ni tashkil etadi.

Joriy yilning o‘tgan davrida voyaga yetmaganlar tomonidan 11 ta, yoshlar tomonidan 23 ta, muqaddam sudlanganlar tomonidan 11 ta, mast holatdagi shaxslar tomonidan 2 ta, ayollar tomonidan 1 ta, guruhlar tomonidan 4 ta jinoyatlar sodir etilgan. Mahalla hududida sodir etilgan aniqlanadigan jinoyatlarning asosiy salmog‘i, ya’ni 27 ta giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlar hamda 12 ta fohishaxona saqlash jinoyatlarini tashkil qilgan.

Bundan tashqari, joriy yilning o‘tgan 6 oyida tumanda sodir etilgan jinoyatlarning 40 tasi “kiber” uslubdagi o‘g‘rilik va firibgarlik jinoyatlarini tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvar kungi “2025-yilda Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-son qarori ijrosini ta’minalash maqsadida mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish

bo‘yicha bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar va ularni ijro etish muddatlari aniq belgilangan holda “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilib, ijrosini ta’minlash bo‘yicha asosiy manzilli ko‘rsatkichlar tasdiqlandi. “Yo‘l xaritasi” bilan mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish bo‘yicha bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar va ularni ijro etish muddatlari aniq belgilangan holda 33 banddan iborat “Manzilli chora-tadbirlar dasturi” tasdiqlangan.

Jinoyatlarning sabablarini “mahallabay” va “sohabay” muhokama qilish tartibi, mahallalarni kriminogen darajasida toifalash tizimi, “mahalla yettiligi” instituti, “ijtimoiy profilaktika” tamoyili asosida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish amaliyoti doirasida aholida xavfsizlik hissini shakllantirish borasida qator samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Har bir mahallada huquqbuzarlikni erta oldini olish, kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish bo‘yicha yangi mexanizm joriy etilib, tuman prokurori rahbarligida tuman prokuraturasida idoralararo muvofiqlashtiruvchi shtab faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Tumandagi jami 46 ta mahallaning kriminogen vaziyati og‘ir 7 ta (qizil toifadagi) mahallalariga mas’ul rahbarlar nomma-nom biriktirilib, barcha mahallalarning “yo‘l xaritalari” ishlab chiqilib, ijroga qaratilgan.

Dang‘ara tumani hokimligi, tuman prokururasi, tuman ichki ishlar bo‘limi, soliq inspeksiyasi, Milliy gvardiya, Mahalla uyushmasi tuman bo‘limi bilan qo‘shma qaror tasdiqlanib, qaror ijrosini sifatli ta’minlash hamda samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadida tumanning 14 ta idora rahbarlari tarkibida, idoralararo muvofiqlashtiruvchi tuman shtabi, 14 ta mas’ul idoralarning 14 nafar mas’ul xodimlari tarkibida tuman ishchi guruhi hamda alohida targ‘ibot guruhlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Bugungi kunga qadar, “Yo‘l xaritalari” ijrosi yuzasidan yil boshidan mahallalardagi aholi gavjum joylarga 139 ta, ko‘p qavatli uylarning hovlisiga 360 gradus aylanuvchi 3 ta, mahallalarning asosiy kirish-chiqish joylariga 40 ta, bozor va savdo markazlariga yuzni va avtomobil raqamini tanib oluvchi 7 ta, maktab va mакtabgacha ta’lim muassasalarining kirish-chiqish joylariga 43 ta, jami bo‘lib 780 ta kameralar, ko‘p qavatli uylarning eshiklariga 14 ta domofonlar, uylarning kirish yo‘laklariga 4 ta tashvish tugmalari o‘rnatildi, 76 ta savdo muassasalari va 222 ta xonadonlar tezkor qo‘riqlovga olindi.

Mahallalarda fuqarolarni ogohlikka chaqiruvchi “Hudud kamera nazoratida!”, “Obyekt qo‘riqlovda!” hamda “Xonodon qo‘riqlovda!” kabi jami 241 ta stikerlar joylashtirildi, mahallalarda 43 ta “namunaviy xavfsiz ko‘cha” hamda 103 ta “namunaviy xavfsiz yo‘lak” tashkil etildi, ichki yo‘llar va ko‘chalar 716 ta yoritish vositalari bilan ta’minlandi. Qaror ijrosi bo‘yicha hududlarda 17 marotaba tanqidiy muhokama yig‘ilishlari o‘tkazildi.

Kriminogen vaziyati og‘ir mahallalarga biriktirilgan rahbarlar tomonidan mahallalarda 103 marotaba o‘rganishlar amalga oshirildi. Bugungi kunga qadar huquqbuzarliklar sodir etgan shaxslarga nisbatan avtomatlashtirilgan tartibda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini amalga oshirish uchun 1233 nafar shaxslarga nisbatan xulosalar berildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan joriy yilning 5-mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy Kengashda “Korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalar”ga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi ma’ruzalaridan kelib

chiqib, tumanda korrupsiyaning oldini olish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Tumanda barcha sohalar bo'yicha tahlillar o'tkazilib, joriy yilning yanvar-iyun oylarida yuqori turuvchi idoralarga, aholiga xizmat ko'rsatish, idoralarning boshqaruva tartibini yaxshilash bilan bog'liq 20 ga yaqin takliflar ishlab chiqilib, kiritilgan.

Jumladan, korrupsiyaga nisbatan murosasiz kayfiyatni shakllantirishga qaratilgan ko'rgazmali roliklar, tashkilotlarning kirish qismilariga bannerlar joylashtirish, keng ko'lamli tushuntirish ishlari boshlab yuborildi.

Misol uchun, joriy yilning mart oyida tuman prokururasi va tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda korrupsiyani oldini olish maqsadida tuman tibbiyot birlashmasi va maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlarida ishlovchi barcha xodimlar o'rtasida bunday illatga qarshi kurash va bunday holatga yo'l qo'yganlarga nisbatan jinoiy javobgarlikka tortish to'g'risida ogohlantirildi.

Dang'ara tumanida korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish, maishiy korrupsiyaga barham berish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish muhitini shakllantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilib, tumandagi har bir soha hamda idoralar bo'yicha amalga oshiriladigan ishlari aniq belgilab olindi va har bir bandi bo'yicha muntazam ravishda tizimli ishlar olib borilmoqda.

Tuman prokurori A.Boboxonovning 2025-yil 1-choragida jinoyatchilik hamda huquqbazarliklarning oldini olish va korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlari to'g'risida hisobotini eshitib, bildirilgan taklif va fikr-mulohazalarini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyyati to'g'risida"gi Qonuning 6-, 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Dang'ara tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman prokurori **A.Boboxonovning** «Tuman Prokururasi tomonidan 2025-yilning 6 oyi davomida jinoyatchilik hamda huquqbazarliklarning oldini olish va korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlari to'g'risida»gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman prokurori A.Boboxonovga:

- kriminogen vaziyatni yaxshilash, jinoyatlarning barvaqt oldini olish, omillarni bartaraf etish yuzasidan choralar ko'rish;

- hududda qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish, huquqbazarliklarning oldini olish va profilaktika qilish;

- fuqarolarning ariza va shikoyatlarini hamda yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish, ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish chora-tadbirlarini ko'rish;

- huquqbazarliklar yoki boshqa jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi xatti-harakatlarni sodir qilishga jalb etish hollarini aniqlash va ularga barham berishga doir faoliyatning nazoratini yanada kuchaytirish choralarini ishlab chiqish;

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari maqsadli dasturlari ijrosini doimiy nazoratga olish va tanqidiy baho berish;

- hududda jinoyatchilikning oldini olish va unga sabab bo'luvchi omillarni aniqlash va unga tegishli choralar ko'rish bo'yicha doimiy nazoratga olish;

- fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish, hududda qonunchilikni mustahkamlash bo'yicha kerakli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- hududdagi barcha sohalarda rivojlanish dasturlarini amalga oshirilishini tizimli va doimiy nazoratga olish tavsiya etilsin.

3. Tuman prokururasiga:

2025-yilda asosiy e'tiborni qonun buzilish holatlarini oldini olish yuzasidan profilaktika ishlarini kuchaytirishga, fuqarolarning murojaatlari bo'yicha "Sayyor qabul"lar tashkil etish, joylarda aholining huquqiy ongi va savodxonligini oshirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

tumanning mahalliy budgetidan sarflanayotgan mablag'larni samarali ishlatalishi;

2025-yilda amalga oshirilgan va kelgusida amalga oshirilishi rejalashtirilgan qurilish ishlarini belgilangan muddatlarda va sifatli bajarilishini nazoratga olsin.

4. Mazkur qarorning ijrosi tuman prokurori A.Boboxonovga, nazorati Xalq deputatlari tuman Kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalar bo'yicha doimiy komissiya raisi B.Butabekov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



TOJIXAKIMOV
SHUXRATJON
NURMUXAMMADOVICH